

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki  
kuzatuv kengashi to‘g‘risida  
NIZOM  
(yangi tahriri)**

Muqaddima

1-§. Umumiy qoidalar

2-§. Bank kuzatuv kengashining tarkibi, uni shakllantirish va vakolatini tugatish tartibi

3-§. Bank kuzatuv kengashining vakolatlari

4-§. Bankning kuzatuv kengashi raisi

5-§. Bankning kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish tartibi

6-§. Bankning kuzatuv kengashi va a‘zolarining huquq va majburiyatlari

7-§. Bankning kuzatuv kengashi a‘zolarining javobgarligi

8-§. Yakuniy qoidalar.

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonunlari, Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida nizom (*Adliya vazirligi tomonidan 2020 yil 30 iyunda 3254-son bilan ro‘yxatga olingan*) asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) kuzatuv kengashining maqomi, tarkibi, vakolatlari, ishlash tartibi, Bankning boshqa boshqarish organlari bilan o‘zaro munosabatini, shuningdek a‘zolarining huquqi, majburiyati va javobgarligini belgilaydi.

**1-§. Umumiy qoidalar**

1. Bankning kuzatuv kengashi bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, u boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida bank faoliyatini nazorat qiladi va tekshiradi hamda bankning barqaror moliyaviy holati uchun javobgar hisoblanadi.

Bankning kuzatuv kengashi Bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan Bank boshqaruvi a‘zolari o‘rtasida vakolatlar hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishi va bartaraf etilishini ta‘minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

Bankning kuzatuv kengashi a‘zolari Bankning oqilona korporativ boshqaruviga ko‘maklashadi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan samarali hamkorlikni ta‘minlaydi.

2. Bankning kuzatuv kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Bank ustavi, Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qarorlari, mazkur Nizom va Bankning boshqa ichki normativ hujjatlariga amal qiladi.

3. Bankning kuzatuv kengashi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishiga hisobdordir.

## **2-§. Bank kuzatuv kengashining tarkibi, uni shakllantirish va vakolatini tugatish tartibi**

4. Bank kuzatuv kengashining a'zolari Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi. Bankning kuzatuv kengashi a'zolari soni Bank faoliyatining miqyosi va xususiyati, uning rivojlanish strategiyasi va maqsadlaridan kelib chiqib, shuningdek, ushbu kengash tomonidan qo'mitalar tashkil qilinishi va ularning ish faoliyati yo'lga qo'yilishi inobatga olinib, Bank aksiyadorlari sonidan qat'i nazar, besh kishidan kam bo'lmagan miqdorda toq sonda belgilanadi, bunda Bankning kuzatuv kengashi tarkibiga kiritiladigan mustaqil a'zolar soni alohida ko'rsatilishi kerak. Bank kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi bankka aloqador shaxslar bo'lmashligi lozim (bunda ularning Bankning kuzatuv kengashidagi a'zolihi hisobga olinmaydi).

Bankning kuzatuv kengashi tarkibiga Bankning minoritar aksiyadorlari manfaatini himoya qiladigan a'zolar va mustaqil a'zolar kiritiladi. Bankning kuzatuv kengashi mustaqil a'zosiga nomzodlar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonuni 76-1-moddasida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq belgilanadi.

Bankning kuzatuv kengashi a'zosi Bank aksiyadori bo'lmashligi ham mumkin.

Bankda, uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxs, shuningdek, ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a'zosi Bankning kuzatuv kengashi a'zosi bo'la olmaydi.

Ikki yoki undan ortiq bankning kuzatuv kengashi a'zosi bo'lgan yoki a'zo bo'lish niyatida bo'lgan shaxs ham Bankning kuzatuv kengashi a'zosi bo'la olmaydi (bundan mazkur banklar bir bank guruhiga tegishli bo'lgan hollar mustasno).

Markaziy bank talabiga ko'ra vakolati muddatidan ilgari tugatilgan shaxs yana Bankning kuzatuv kengashi a'zolihi saylanishi mumkin emas.

Bankning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxs cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

5. Bankning kuzatuv kengashi a'zolari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishi va o'z vakolati doirasida asosli qaror qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Bank Bankning kuzatuv kengashi a'zolari banklar va bank faoliyati to'g'risida normativ-huquqiy hujjatlar talablariga doimo muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

Bank Bankning kuzatuv kengashi a'zolihi saylanishi nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib oladi.

6. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi chaqirilishidan 10 kun oldin

Bankning kuzatuv kengashi a'zoliciga ushbu kengashning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli hisoblanadi (bundan Bank kuzatuv kengashining mustaqil a'zoliciga nomzodlar ko'rsatish mustasno).

7. Bankning kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzodlarni ko'rsatish bo'yicha takliflar tushmaganda yoki aksiyadorlar ko'rsatgan nomzodlar soni Bankning kuzatuv kengashini tashkil etish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, Bankning kuzatuv kengashi o'z ixtiyoriga ko'ra Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibiga Bankning kuzatuv kengashiga nomzodlar ko'rsatish masalasini kiritishi mumkin.

8. Bank kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Bank kengashiga saylanishi lozim bo'lgan mustaqil a'zolar va boshqa a'zolar soniga alohida ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli hisoblanadi.

Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Bankning kuzatuv kengashiga saylangan deb hisoblanadi.

9. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq Bankning kuzatuv kengashi a'zosining vakolati muddatidan oldin tugatilishi mumkin.

### **3-§. Bank kuzatuv kengashining vakolatlari**

10. Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

a) Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Bank boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

b) strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

d) Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

e) Bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda Bank faoliyatining natijalari to'g'risida Bank boshqaruvining hisobotini eshitish;

f) Bank aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonuni 65-moddasining o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

g) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

h) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

i) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

j) Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Bank ustavini yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risida masalani Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

k) Bank boshqaruvini tuzish, uning raisini tayinlash, raisning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

l) Bank boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

m) Bank boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;

n) Bank boshqaruvi a'zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o'rganish, muhokama qilish hamda ular bo'yicha bahslashish;

o) mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

p) Bank boshqaruvining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va Bankning kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Bank boshqaruvidan olish (Bankning kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin);

q) auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

r) ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotini eshitib borish;

s) ichki audit xizmati faoliyatini nazorat qilish, shuningdek ichki audit xizmatining choraklik hisoboti asosida Bank boshqaruvi tomonidan Bank strategiyasi va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o'tkazish;

t) dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

u) Bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

v) Bankning bank xizmatlari ofislarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

x) Bankning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

y) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunining 8-bobida nazarda tutilgan yirik bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilish;

z) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunining 9-bobida nazarda tutilgan hollarda Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

o') Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish haqida qaror

qabul qilish;

g') Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish.

sh) e'lon qilingan aksiyalar soni va turi doirasida qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali Bankning ustav kapitalini ko'paytirish masalalarini hal qilish;

ch) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunining 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdosiga chiqarish) narxini belgilash;

ch-1) Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

ch-2) qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

ch-3) qimmatli qog'ozlar emissiyasi risolasini tasdiqlash, qimmatli qog'ozlar emissiyasi risolasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

ch-4) Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

ch-5) Bank aktivlarini tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararga qarshi yaratiladigan zaxira shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek Bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

ch-6) manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

ch-7) Bankning moliyaviy holatini tiklash rejasini tasdiqlash;

ch-8) Bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rish;

ch-9) bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

ch-10) yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta'minlash;

ch-11) Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash.

ch-12) Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va Bank ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

Bank kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bank boshqaruviga o'tkazilishi mumkin emas.

#### **4-§. Bankning kuzatuv kengashi raisi**

11. Bankning kuzatuv kengashi raisi, Bank kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan uning a'zolari tomonidan saylanadi.

12. Bankning kuzatuv kengashi o'z raisini istalgan paytda, Bank kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, qayta saylashga haqli.

13. Bankning kuzatuv kengashi raisi ushbu kengash ishini tashkil etadi, uning majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi. Bankning kuzatuv kengashi raisi uning faoliyatini boshqarish va samaradorligini ta'minlashga javobgar hisoblanadi, shuningdek, uning a'zolari o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi, mazkur kengash yig'ilishlarida to'liq va keng qamrovli ma'lumotlarni tahlil qilgan holda mustaqil fikr almashinuvlari, tanqidiy qarashlar va ijodiy yondashuvlar asosida qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi.

Bankning kuzatuv kengashi raisi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida raislik qiladi, Bank boshqaruvi raisi va Ichki audit departamenti xodimlari bilan mehnat shartnomalarini imzolaydi, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Bank ustavi va mazkur Nizomda ko'zda tutilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

14. Bankning kuzatuv kengashi raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Bank kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

#### **5-§. Bankning kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish tartibi**

15. Bank kuzatuv kengashining majlisi Bankning kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi, ovoz berish huquqiga ega bo'lgan aksiyalarning bir foizidan kam bo'lmagan qismiga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador), shuningdek Bank ustavida belgilangan boshqa shaxslar talabiga ko'ra chaqiriladi.

Bankning kuzatuv kengashi raisi yo'qligida Bank kuzatuv kengashining majlisi, mazkur Nizomning 14-bandiga muvofiq, uning vazifasini bajarayotgan Bankning kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan chaqiriladi.

16. Bankning kuzatuv kengashi raisi Bank kuzatuv kengashining majlisi chaqirilishini, agar masala bunday vakolatga ega bo'lmagan shaxs tomonidan talab qilingan bo'lsa yoki Bank kuzatuv kengashining vakolatiga daxldor bo'lmagan masala qo'yilgan bo'lsa, rad etib qaror chiqaradi.

17. Bank kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kворum Bankning kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 (yetmish besh) foizidan kam bo'lmasligi kerak. Bank Bankning kuzatuv kengashi a'zolarining soni Bank ustavida nazarda tutilgan miqdorning 75 (yetmish besh) foizidan kam bo'lgan taqdirda, Bank kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun navbatdan tashqari Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini chaqiradi. Bank kuzatuv kengashining qolgan a'zolari bunday navbatdan tashqari Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli hisoblanadi.

18. Bank kuzatuv kengashining majlisida qaror majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik

ovozi bilan qabul qilinadi. Bank kuzatuv kengashining majlisida masala hal etilayotganda uning har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Bank kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovoz berish huquqini Bank kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bankning kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda ushbu kengash a'zolarining ovozlari teng bo'lsa, Bank kuzatuv kengashining raisi hal qiluvchi ovoz huquqiga ega bo'ladi.

Ushbu Nizom 10-bandining "y", "z", "sh" va "ch-1" kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror Bankning kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

19. Bank kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Bankning kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilgandan so'ng 10 kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- a) majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- b) majlisda hozir bo'lgan shaxslar;
- d) majlisning kun tartibi;
- e) ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular bo'yicha o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- f) qabul qilingan qarorlar.

Bankning kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda raislik qilgan va ishtirok etgan Bankning kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi (majlis bayonnomasi elektron raqamli imzodan foydalangan holda ham imzolanishi mumkin), ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

20. Bankning kuzatuv kengashi qarori sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) ushbu kengashning barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Sirdan ovoz berish yakuni bo'yicha ham bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Bankning kuzatuv kengashi Bank aksiyadorlari va investorlari bilan samarali o'zaro hamkorligini ta'minlash uchun Bank kuzatuv kengashining yig'ilishi videokonferensaloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.

21. Bank kuzatuv kengashining bayonnomasi varaqlari raqamlangan, ip bilan tikilgan, Bank boshqaruvi raisi o'rinbosarining hamda bayonnomalarni ro'yxatdan o'tkazuvchi Bosh bankning Strategik rivojlantirish departamenti rahbarining imzolari va asosiy muhr bilan tasdiqlangan maxsus jurnalda ro'yxatdan o'tkaziladi.

22. Bank kuzatuv kengashining majlisi bayonnomasining nusxasi yoki bayonnomadan ko'chirma quyidagilarga ijro etish uchun topshiriladi:

- a) imzolangan kuni – Bank boshqaruv raisi va a'zolariga;
- b) bank xizmatlari ofislari va Bosh bank tarkibiy tuzilmalari rahbarlariga (agar ko'rilgan masala ularga funksional jihatdan daxldor bo'lsa);
- d) boshqa mansabdor shaxslar va auditorning so'rovi bo'yicha (faqat Bank boshqaruvi

raisining ruxsati bilan);

e) sud, huquq-tartibot organlari va boshqa davlat idoralariga O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida ko'zda tutilgan holatlarda.

23. Bosh bankning Strategik rivojlantirish departamenti Bank kuzatuv kengashining majlisi kun tartibidagi masalalar bo'yicha hujjatlarni to'playdi (yig'adi) va ularni Bank kuzatuv kengashining majlisiga kiritadi, ushbu kengash majlislarining bayonnomalarini ro'yxatdan o'tkazadi va saqlaydi, Bank kuzatuv kengashining qarorlari ularni bajarish uchun mas'ul bo'lgan bank xizmatlari ofislariga yoki Bosh bank tarkibiy tuzilmalariga o'z vaqtida yetkazilishi uchun javob beradi.

#### **6-§. Bankning kuzatuv kengashi va a'zolarining huquq va majburiyatlari**

24. Bankning kuzatuv kengashi a'zolari huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish chog'ida Bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga oladi.

Bankning kuzatuv kengashi a'zosi o'z faoliyatini amalga oshirayotganda mas'uliyatni his qilgan holda javobgarlik va jonkuyarlikni namoyon qilishi hamda sodiqlik bilan xizmat qilishi lozim.

Bank kuzatuv kengashi a'zosining javobgarlik va jonkuyarlikni namoyon qilishiga quyidagilar kiradi:

a) qarorlarni ongli ravishda qabul qilish va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish, shu jumladan, qarorlarni o'z vakolatlari doirasida va mavjud ma'lumotlarni har tomonlama baholagan holda qabul qilish;

b) xizmat vazifalarini bajarishga mas'uliyat bilan yondashish;

d) O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari, Bank ustavi va Bank ichki normativ hujjatlari talablariga rioya qilish.

Bank kuzatuv kengashi a'zosining Bankka sodiqlik bilan xizmat qilishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) o'zi bilan bog'liq barcha mavjud va ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish;

b) o'z xizmat mavqeidan shaxsiy manfaati yo'lida foydalanmaslik;

d) manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda va Bank manfaati yo'lida o'z vazifalarini to'laqonli bajarishiga to'sqinlik qilgan taqdirda, qaror qabul qilishda qatnashmaslik.

25. Bankning kuzatuv kengashi a'zolarining huquqlari:

a) Bank kuzatuv kengashining majlisi chaqirilishini talab qilish;

b) Bank kuzatuv kengashining majlisida shaxsan ishtirok etish, majlisda muhokama qilinayotgan masala bo'yicha, belgilangan reglament doirasida, so'zga chiqish;



d) Bank faoliyatining ma'lum bir davrdagi faoliyati natijalari haqida, uni rivojlantirish rejalari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot olish.

26. Bankning korporativ boshqaruv tizimini baholash natijasi hisobga olingan holda Bank kuzatuv kengashining har bir a'zosiga, ular o'z majburiyatlarini bajargan davrda, har oyda 7000000 (yetti million) so'm yoki bir yilda 84000000 (sakson to'rt million) so'm haq to'lanadi.

Agar Bank kuzatuv kengashining qarori bilan uning ayrim a'zolariga ularning majburiyatlaridan tashqari Bank faoliyati bo'yicha muayyan funksiyalarni bajarish yuklangan bo'lsa, qo'shimcha yuklangan ishlarning hajmi va bajarish davri hisobga olinib, ularga har oyda O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 50 barobarigacha haq to'lanadi.

Bank kuzatuv kengashining a'zolariga to'lanadigan haqning umumiy qiymati Bankning biznes-rejasida alohida satr bilan ko'rsatiladi.

27. Bank kuzatuv kengashining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

a) o'z vakolatlarini Bank, omonatchilar va aksiyadorlarning manfaatlarini yo'lida amalga oshirish;

b) omonatchilar va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun kreditlash va investitsiyalash operatsiyalarining to'g'riligi ustidan nazoratni amalga oshirish;

d) Bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

e) Bank oladigan foydani monitoring qilish;

f) Ichki audit departamenti faoliyatini tashkil etish;

g) har yili Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishiga O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan korporativ boshqaruv talablarining bajarilishi yuzasidan hisobot taqdim etish;

h) Audit va Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitalariga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarning ijrosini doimiy ravishda nazorat qilib borish va buning uchun yetarli vaqt ajratish hamda ushbu qo'mitalarni tajribali a'zolar bilan butlanishini ta'minlash;

i) Bank boshqaruvi tomonidan mehnatga haq to'lash tizimiga rioya qilish darajasini nazorat qilib borish va yiliga kamida bir marta mehnatga haq to'lash tizimining samaradorligini qayta ko'rib chiqish;

j) O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish tartibini o'rnatish hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilish;

k) Bankda yagona korporativ madaniyatni yaratish maqsadida:

Bank faoliyati qonuniy va odob-axloq qoidalari asosida yuritilishi uchun korporativ qadriyatlar va standartlarini o'z ichiga olgan Bankning odob-axloq kodeksini qabul qilish va ularda

belgilangan qoidalarga barcha xodimlar, shu jumladan, Bankning boshqaruv organlari tomonidan rioya etilishini ta'minlash;

korporativ qadriyatlar va standartlar, odob-axloq kodeksi hamda Bank tomonidan ishlab chiqilgan tegishli siyosatlar barcha xodimlarga tushuntirilishi va ijro uchun yetkazilishi ustidan nazorat qilish;

nomaqbul xatti-harakat va (yoki) qoidabuzarlikni amalga oshirgan xodimlar, shu jumladan, Bank boshqaruviga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

28. Bankning kuzatuv kengashi a'zosidan o'z vazifalarini amalga oshirish doirasida quyidagilar talab etiladi:

a) Bank korporativ boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi va Bank kuzatuv kengashining funksiyalarini bilish;

b) korporativ boshqaruvdagi o'z o'rnini anglash;

d) bank faoliyatiga, shuningdek, bank-moliya sohasiga xos bo'lgan tavakkalchiliklar haqida tasavvurga ega bo'lish, tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruvni tashkil etish borasidagi bilim va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;

e) Bank faoliyatida faol qatnashish, uning faoliyatidagi va tashqi sharoitlardagi muhim o'zgarishlarni kuzatib borish, shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda Bank manfaatini himoya qilishga qaratilgan choralarni o'z vaqtida ko'rish;

f) Bankning korporativ madaniyati va qadriyatlari shakllanishida yetakchi o'rinni tutish;

g) ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan Bank kuzatuv kengashining boshqa a'zolari, Bank boshqaruvi a'zolari va Bank xodimlarining qarashlaridan qat'i nazar o'zining asoslangan fikrini bildirish;

h) mas'uliyatni his qilgan holda javobgarlik va jonkuyarlikni namoyon qilish, sodiqlik bilan xizmat qilish, Bank va uning barcha aksiyadorlari manfaatini ko'zlab, yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni vijdonan va oqilona amalga oshirish, o'z yoki ayrim shaxslar manfaati yo'lida o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik;

i) manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi harakatlardan qochish, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi haqida darhol Bankning kuzatuv kengashiga xabar berish va uni bartaraf etish yuzasidan chora ko'rish;

j) Bankning kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarida o'z vakolatini uchinchi shaxsga o'tkazmagan holda ishtirok etish;

k) Bankning kuzatuv kengashiga a'zoliigi chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tijorat va bank sirlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlar maxfiyligiga rioya etish.

29. Bankning kuzatuv kengashi o'z majburiyatlarini quyidagilarni amalga oshirish orqali

bajaradi:

- a) malakali Bank boshqaruvi a'zolarini ishga tayinlash;
- b) Bank kapitallashuvining adekvatligini saqlash;
- d) Bank boshqaruvi bilan maslahatlashgan holda bankning uzoq va qisqa muddatli biznes-rejasini belgilash;
- e) Bankning samarador siyosatlarini ishlab chiqish;
- f) qonuniy, xavfsiz, sog'lom va samarali bank faoliyatini yuritish uchun adekvatli operatsion siyosatlarni qo'llash;
- g) bank operatsiyalarining O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va Bank siyosatiga muvofiqligini ta'minlash uchun ularning ustidan nazoratni amalga oshirish;
- h) Bankning joriy faoliyatini kuzatish.

30. Bankning kuzatuv kengashi o'z faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun yilda kamida bir marta quyidagilarni amalga oshiradi:

- a) Bank kuzatuv kengashining har bir a'zosining kasbiy mas'uliyatini u tomonidan amalga oshirilgan ishlarning samaradorlik ko'rsatkichlari va natijalari asosida baholaydi;
- b) o'zining boshqaruv usullari va siyosatining samaradorligini ko'rib chiqadi, ulardagi muammoli jihatlarni aniqlaydi hamda tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.

31. Bankning kuzatuv kengashi o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarishda Bankning komplaens-nazorat, ichki audit va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlariga tayanadi hamda ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Bankning kuzatuv kengashi o'z ishining samaradorligini ta'minlash uchun Audit qo'mitasi va Tavakkalchiliklarni boshqarish qo'mitasi tashkil etadi.

Ushbu qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi hamda tarkibi Bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan har bir qo'mita bo'yicha alohida ichki normativ hujjatda belgilanadi.

#### **7-§. Bankning kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi**

32. Bankning kuzatuv kengashi a'zosi Bank faoliyatiga doir o'ziga ma'lum bo'lgan oshkor qilib bo'lmaydigan axborotni, Bank ichki normativ hujjatlariga muvofiq tijorat sirini tashkil etuvchi axborot va ma'lumotlarni, shuningdek bank sirini oshkor etmasligi va shaxsiy maqsadda foydalanmasligi lozim.

33. Bankning kuzatuv kengashi a'zosi O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari va Bank ustavida belgilangan tartibda Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo'ladi.

34. Bankka zarar keltirishga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda qatnashmagan yoki bunday qarorga qarshi ovoz bergan Bankning kuzatuv kengashi a'zosi javobgar bo'lmaydi,

O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

35. Agar mazkur Nizomning ushbu paragrafi normalariga muvofiq Bank kuzatuv kengashining bir necha a'zosi javobgar bo'lsa, ularning Bank oldidagi javobgarligi solidar hisoblanadi.

36. Sud Bankning kuzatuv kengashi a'zosini Bankka mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, uning vakolatlari sudning qaroriga ko'ra, unga xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallash taqiqlangan holda, bir yildan kam bo'lmagan muddatga tugatilishi mumkin.

Bankning kuzatuv kengashi a'zosi Bankka chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganligi yoxud o'zi yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida yirik bitim tuzishni va (yoki) adekvatli affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilishni taklif etganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

#### **8-§. Yakuniy qoidalar**

37. Bank kuzatuv kengashining qarori va materiallari, shuningdek uning a'zolarining fikrlari qat'iy sir tutiladi va Bankning kuzatuv kengashi ruxsatisiz rasman oshkor etilmaydi.

38. Bankning kuzatuv kengashi majlisiga taklif etilgan shaxs sir tutiladigan ma'lumotni oshkor qilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari asosida shaxsan javob beradi.

**Boshqaruv raisi**

**S.Normuxamedov**